

ULUG'BEK HAMDAMNING "SO'Z" HIKOYASIGA BIR NAZAR*G'ayratova E'zoza Akmaljon qizi**Guliston davlat universiteti filologiya fakulteti talabasi*

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Ulug'bek Hamdam hayoti, uning hikoyalari va hammaning e'tiboriga sazovor bo'lgan "So'z" hikoyasi haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: hikoya, obraz, tabiat, bosh qahramon, epizod, xayol va hayot.

Yozuvchi, tarjimon Ulug'bek Hamdam o'zining yozuvchilik faoliyatini hikoya yozishdan boshlagan. Adib hikoyalarida, asosan, jamiyat va inson, inson va uning hayotidagi muammolar kabi mavzular yetakchilik qiladi. Adib hikoyalarining ko'pchiligi boshqa tillarga tarjima qilingan va chet el jurnallarida nashr etilgan. Misol uchun, adibning hammaga ma'lum va mashhur bo'lgan "Tosh" hikoyasi Amerikada chop etilgan. Adib o'zining o'zgacha uslub va yo'nalishiga ega. Uning "Tosh", "Lola", "Ko'ngildagi daryo" kabi hikoyalari kitobxonlarni mushohada qilishga undaydi. Adibning eng mashhur hikoyalaridan biri "So'z" deb nomlanadi. "So'z" hikoyasi boshqa hikoyalaridan tubdan farq qilib, unda er-xotinning ózaro munosabatlari, hayot tashvishlaridan yoshlarining ózlari payqamagan holda ancha keksayib qolgani, bu dunyo tashvishlari hech qachon tugamasligi va bir ayolning ózi bilib-bilmay gapirgan sózi orqali erkakning butun hayotining barbod bólishi kabi holatlar ifodalangan. Adib birgina sóz orqali butun kitobxonlarning diqqat- e'tiborini tortadi va ularni nahotki shu sóz bir inson hayotining barbod bólishiga arzisa degan mulohazani yuritishga majbur qiladi va ózlarini qahramonning órniga qóyib kórishga undaydi. Undan tashqari, hikoyada ózining shuncha yillik turmush órtog'i bilan "hasratlashish"ni afzal kórmay, dugonasiga dardini aytadigan ayol obrazi orqali kitobxonlar inson bu dunyoda noto'g'ri jufti halol tanlamaslik, qanaqa holat yoki qanaqa vaziyat bólishidan qat'iy nazar uni turmush órtog'i bilan órtoqlashish, uni hurmat qilish, oila sirini hech kim bilan bólishmaslik kabi xususiyatlarni ózlariga ibrat qilib olishlari mumkin. Garchi erkak butun hayotini oilasiga bag'ishlasa-da, xotinini hurmat qilib, sevsa-da, ayolining unga bee'tiborligi va uning salbiy sózi erkakning yurak-bag'rini órtab, butun vujudini adoyi tamom qilib borar edi. Endi esa hikoyadagi ba'zi joylarni, ya'ni insonlar uchun ibrat bóladigan, ularni g'azablantiradigan, o'ylantiradigan tomonlarini tahlil qilib kóramiz. Hikoya er-xotinning dala hovliga sayohatidan boshlanadi. Hikoya qahramonlarining yoshi taxminan 50 yoshlar atrofida. Asar erkakning iliq fikrlari bilan boshlanadi. Dastlabki voqealar dala hovlida yuz beradi. "Xudo xohlasa, bundan keyingi hayotimiz yanayam go'zal bo'ladi!"- deya ayoliga mehr bilan boqdi er" jumlasini orqali erkakning o'z ayoliga mehribonligi, bundan keyingi hayotini faqat xotini bilan birga mazmunli

ótkazishi, uni xursand qilish uchun har narsaga tayyorligi asar qahramonining óz oilasiga bólgan iliq munosabatini yaqqol ifodalab bergan. Erkakning “Iya, xotinjon, qara, kuz ham keb qopti-yu, o’zimiz bilan bo’lib payqamabmiz ham” gapidan ularning umrlari xuddi kuz singari xazonga aylanib borayotganini sezish mumkin. Lekin ular oila tashvishlari, bolalarini tarbiyalash, óqitish va ularni jamiyatda óz órnini topishiga yordam berish kabi hayotiy ishlar bilan mashg’ul bo’lib, o’zlarining umrlari qanday o’tganini sezmay qolgan. Ayol dala hovlidagi hovuzga tikilib o’tirganda erining quyidagi gaplari kitobxonlarni o’ziga jalb qilmasdan qo’ymaydi: “Shuncha ko’zgular kamlik qildi-a, sizga... Undan ko’ra kelib, ko’zim oynasiga qarang, bu yerda siz o’sha-o’shasiz, sira o’zgarmagansiz”. Bu jumlar orqali erining ko’z o’ngida ayoli hali ham o’sha yoshligidagidek chiroyliligiga, shuncha yillar o’tgan bo’lsa-da, erining ko’z o’ngida o’sha suluv qizdek ekanligiga ishora qilingan.

Bu asardagi daryoning Zaxariqdaryo deb nomlanishida ham ramziy ma’no bor. Bunday nomlanish bejizga emas va u quyidagicha izohlangan: "Zaxariqdaryoni hayotning uch pallasida uch xil ko‘rish mumkin: yoshligida daryo, o‘rta yoshida ariq va keksayganda zax suv kabi". Ya'ni insonlar yoshligida xuddi daryo kabi to‘lib-toshadi, hamma narsaga qiziquvchan, hayot sinovlariga duch kelmagan va o‘z orzulari og‘ushida uchayotgan bo‘ladi, o‘zi qiziqqan narsalar haqida ko‘proq bilgisi va ularga qiyinchiliksiz erishishni xohlaydi. O‘rta yoshida esa ariq singari hayotga bo‘lgan zavqi biroz pasaygan, hayot qiyinchiliklarini ozmi-ko‘pmi tatigan, o‘z orzulariga o‘zi o‘ylagandek oson va mashaqqatlarsiz yetolmasligini anglaydi. Keksayganda esa hayoti qish fasli singari tugab borayotganligini anglagan, o‘zi qanchalik bu hayotda ko‘proq qolishni istasa-da, buning iloji yo‘qligini sezgan, hayot sinovlarining deyarli barchasini boshidan o‘tkazgan obraz tasvirlanadi. Bu esa asarda zax suvga o‘xshatiladi. Asarda qahramonlar tomonidan aytilgan “Chindan ham inson umri suvga o‘xshar ekan” jumlasini orqali inson umrining qisqaligi, u ko‘z ochib-yumguncha o‘tib ketishi nazarda tutilgan.

Ayolning “Asti so‘rama, dugonajon, shunaqangi bema‘ni kun bo‘ldiki, zerikkanimdan naq yorilib o‘lay deyapman. Bir nimalarni bahona qilib vahliyroq qaytsam kerak... Chiqqin-a oldimga kechqurun, hasratlashamiz...” degan gapi erining yuragiga tig‘dek botadi. Er bu gaplarni eshitib, haykaldek qotadi. U suv bo‘yiga borib, bo‘lgan voqealarni xayolidan o‘tkazadi va xotining “bema‘ni” degan gapi miyasida tinimsiz aylanadi. Birpasdan keyin qulog‘iga xotining “Osh nima bo‘ldi?” degan qichqirig‘i va "Osh tagiga olib ketadi" degan gapi eshitaladi va o‘zicha o‘ylaydi: "Sen oshni aytasan, bu yoqda mening hayotim tagiga olib ketmoqchi-ku! Osh tagiga olgan bo‘lsa olgandir, uni qaytadan boshlash mumkin, lekin umrni-chi? Agar u tagiga olsa, uni yangitdan boshlash mumkinmi?" Lekin u bu o‘ylarini xotiniga aytolmadi va o‘zini hech narsa bo‘lmagandek tutdi. Bu esa kitobxonlarni chuqur mushohada qilishga undaydi. Nahotki xotin nojóya sózlab, erkakning kónglini qoldirgan bólsa, nahotki

birgina so'z orqali erkakning bundan keyingi hayoti o'zi xohlagandek o'tmasa, nahotki uning munosabati endi xotini bilan avvalgidek bo'lmasa, nahotki, nahotki degan savollar kitobxonning kóz óngida gavdalana boshlaydi.

Asarda oshning sho'r bo'lgani ham ramziy ma'noda berilgan. Xuddi erkakning butun hayoti mana shu osh kabi "sho'r" o'tgandek go'yo. Ayolning : "Xo'p, mayli, salgina xolos. Chuchmal ekan, jinday tuz tashlagandim. Hech qisi yo'q. Ana daryo bor, suvi shifobaxsh, der edingiz. Achchiq qilib bir choynak ko'k choy damlab bersam, eski tuzlaringizni ham yuvib tushadi" degan gapi xuddi bir choynak choy bilan butun umr davomida bo'lgan voqealarni osongina yuvib tashlash mumkindek oson aytiladi. Lekin, afsuski, bu "tuzlar" hech qachon unutilmaydi va yuvilmaydi!

Erkak: "Bir choynak emas, butun boshli daryoni qaynatib ichib yuborsam ham bugun ichimga tushgan tuzni yuvolmaydi" deb ko'nglidan o'tkazadi.

O'sha gapni eshitgan zahotiy oq erkakning kayfiyati ob-havo singari o'zgargandek tasvirlanadi. Tushgacha ob-havoning ochiqligi, yoqimlili erkakning kayfiyati choq bo'lganini anglatsa, tushdan keyin osmonni qora bulut qoplashi xotining "bema'ni" degan so'zini eshitgandan keyingi holatidir. Ayolning birgina so'zi orqali erkakning butun hayotidan ma'no yo'qoldi. Ayolning bu gapi erkakning yurak-bag'rini kundan kun ezardi, uni kun-u tun shu haqida o'ylashga majbur qilardi. "Axir men ham guldek umrimni, yoshligimni, kuchga to'lgan davrimni, his-tuyg'ularim-u orzu-umidlarimni, qo'yingki, butun borlig'imni ayolinga, farzandlarimga baxshida etmadimmi?" degan o'y uni adoyi tamom qilardi va o'ziga shu singari savollarni beradi, lekin bu kabi savollariga hech ham javob topa olmasdi. Endi baxtli kunlarini yashamoqchi bo'lgan erkakning orzu-umidlari birgina so'z orqali sarobga aylangan edi.

Asarda ifodalangan "Oyning o'n beshi qorong'i, o'n beshi yorug'" maqolidagi yorug' kunlar xotinidan eshitgan "bema'ni" degan so'zgacha bo'lgan davr bo'lsa, qorong'u kunlar o'sha so'z aytilganidan keyingi davrdir. O'sha so'z tufayli erkakning butun hayoti o'ziga "bema'ni" o'tgandek tuyuldi, hattoki, eng baxtli kularini ham "bema'ni" hisoblardi.

Bu hikoyaning "So'z" deb nomlanishiga sabab, birgina "bema'ni" so'zi orqali butun umri, butun hayoti sarobga aylangan erkakning holati tasvirlanishidir. Bu hikoya orqali ayolning noshukrligi, erining mehribonchiligini qadrlamasligini payqash mumkin.

Bu asar hikoya janrida yozilgan bo'lishiga qaramay, o'zida katta ma'no va mazmunni jo qilgan. Adib mahoratini mana shu kichik hikoyani o'qish orqali ham payqash qiyin emas. Bu asar orqali biz inson og'zidan chiqadigan har bir so'zga e'tiborli bo'lishi, aynan o'sha bir so'z ba'zan butun dunyoni vayron qilishi mumkinligi kabi xulosalarga kelishimiz mumkin. Bejizga xalqimiz: "Tig' yarasi bitadi, til yarasi

bitmaydi" demagan. Chunki bir soʻz orqali koʻngilni vayron qilish oson, lekin ming soʻz bilan uni tiklash juda qiyin masala.

Hikoyada maʼnaviy qashshoq boʻlgan ayol obrazi ifodalanadi. Koʻp yillardan beri bilgan insonni ham anglab tushunish, uning asli kim-u, koʻnglida nima borligini bilish murakkab hodisaligi tasvirlanadi. Yozuvchi bu hikoyasi orqali koʻplab oʻquvchilarni oʻzining qolgan asarlariga ham qiziqтира olgan. Bu hikoya orqali oʻquvchi maʼnaviy ozuqa olishi, oʻziga keraklicha xulosa chiqarishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tohir Shermurodov "Hikoyalar, nihoyalar..." maqolasi. "Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati" gazetasi, 1991 yil 5-aprel.
2. Ulugʻbek Hamdam "Soʻz" hikoyasi
3. Soqiyeva Zarnigor "Ulugʻbek Hamdam hikoyalarida xayol va haqiqat" maqolasi. "Science and Innovation" jurnali. 2022.
4. Ziyouz.com sayti